

МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ



Илимий-методикалық журнал

№ 5 2024



гуманитарные науки
естественные науки
технические науки

МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ



Илимий-методикалық журнал

2024

5-сан

*Ўзбекистан Республикасы Министрлер Кабинети жанындагы
Жоқаргы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлиги тәрепинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы гүўалық берилген.*

5-сан 2024 сентябрь

Шөлкемлестіріушілер:

Қарақалпақстан Республикасы Халық билимлендириу Министрлиги,
ӨЗПИИИ Қарақалпақстан филиалы

Редактор:

А. Тилегенов

Редколлегия ағзалары:

Мақсет АЙЫМБЕТОВ	Уролбой МИРСАНОВ
Нағмет АЙЫМБЕТОВ	Сафо МАТЧОН
Айтмурат АЛЬНИЯЗОВ	Шукурулло МАРДОНОВ
Сапардурды АБАЕВ	Камаладин МАТЯКУБОВ
Адхамжон АБДУРАШИТОВ	Арзы ПАЗЫЛОВ
Хайрулла АЛЯМИНОВ	Барлықбай ПРЕНОВ
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ	Раьно ОРИПОВА
Алишер АЛЛАМУРАТОВ	Бахтиёр РАХИМОВ
Дилшодхўжа АЙТБАЕВ	Фурқат РАЖАБОВ
Интизар АБДИРИМОВА	Муқаддас РАХМАНОВА
Тўлқин АЛЛАЁРОВ	Светлана СМИРНОВА (Москва, Россия)
Марифжон АХМЕДОВ	Дилшода САПАРБАЕВА
Умида БАҲАДИРОВА	Феруза САПАЕВА
Фархад БАБАШЕВ	Зайниддин САНАҚУЛОВ
Ботир БОЙМЕТОВ	Мухаббат САЛАЕВА
Гулзода БОЙМУРОДОВА	Қаххор ТУРСУНОВ
Шахло БОТИРОВА	Амина ТЕМИРБЕКОВА
Маманазар ДЖУМАЕВ	Нурзода ТОШЕВА
Асқар ДЖУМАШЕВ	Куанишбек ТУРЕКЕЕВ
Мухтар ЕРМЕКБАЕВ (Шимкент, Қазақстан)	Тажибай УТЕБАЕВ
Алишер ЖУМАНОВ	Амангелди УТЕПБЕРГЕНОВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА	Мамбеткерим ҚУДАЙБЕРГЕНОВ
Холбой ИБРАГИМОВ	Амангелди КАМАЛОВ
Шохида ИСТАМОВА	Вохид КАРАЕВ
Умида ИБРАГИМОВА	Гулмира ҚАРЛЫБАЕВА
Лола ИСРОИЛОВА	Ризамат ШОДИЕВ
Алима КЕНЖЕБАЕВА (Тараз, Қазақстан)	Зафар ЧОРИШАНБИЕВ
Ярмухаммат МАДАЛИЕВ (Шимкент, Қазақстан)	Рустам ФАЙЗУЛЛАЕВ
Меруерт ПАЗЫЛОВА	Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Асқарбай НИЯЗОВ	Тармиза ХУРВАЛИЕВА
Сабит НУРЖАНОВ	Умид ХОДЖАМҚУЛОВ
Захия НАРИМБЕТОВА	Жавлонбек ХУДОЙБЕРГЕНОВ
Хушбоқ НОРБЎТАЕВ	Гулрухсор ЭРҒАШЕВА
Улфат МАҲҚАМОВ	Гавхар ЭШЧАНОВА
	Қонысбай ЮСУПОВ



Janaberegnova A.J. Mustaqil ishlarni tashkil etishning tashkiliy mexanizmlariga oid tadqiqotlar nazariyasi	177
Xudayqulova F.B. Pedagogik faoliyatda kasbiy madaniyatning xususiyatlari	189
Фозилов Б.З. Кар ва заиф эшитувчи 5-7-синф ўқувчиларининг фуқаролик компетенциясини шакллантиришда лойиҳа методидан фойдаланиш йўллари	195
Orinbetov N.T. Akademik litsey o'quvchilarining fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishning didaktik ta'minoti	199
Nizamova M. N. Axborotlashgan zamonaviy jamiyatda bo'lajak menejerlar kasbiy mobilligini rivojlantiruvchi ta'limni tashkil etish	204
Kadirova G.X. Ta'lim jarayonida varativ o'quv topshiriqlardan foydalanish imkoniyatlari	209
To'raqulova M.Q., Fatullayeva S.I. Xorijiy tajribalar asosida oliy muhandislik maktabi faoliyatini tashkil etish orqali yaratuvchi magistrnlarni tayyorlash metodikasi	214
Yuldashev S.N. Loyihaga asoslangan ta'lim jarayonni tashkil etish metodikasi	224
Куньянинь Лп. Создание методического инструментария для развития экологической компетентности у будущих переводчиков и использование современных инноваций при его реализации	228

МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲАМ РУЎХИЙЛИҚ ТИЙКАРЛАРЫ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

Ibragimova D.I. Isajon Sultonning tarixiy hikoyalari tematikasi	233
--	-----

ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

Тажетдинова Г.А. Жоқары билимлендириўде жасалма интеллекттен пайдаланыў зэрурлиги ҳәм машқалалардың шешимлери	239
Теубаева G.S. Oliy ta'lim tizimiga sun'iy intellektni joriy etish	248
Toxirov F.J. Talabalarning mobil ilovalarni ishlab chiqishga oid kompetentligini rivojlantirishda simulyatsiya va virtual muhitlardan foydalanish imkoniyatlari	254
Бўронова Г.Ё. Виртуал робототехника тўғарақларини ташкил этишда замонавий ўқув платформаларидан фойдаланишнинг амалий имкониятлари	259
Djumayev J.M. Robototexnika darslarida talabalarni ijodiy ko'nikmalarni rivojlantirish masallari	267
Axmedov A.B. Professional ta'limda raqamli transformatsiyaning ahamiyati	275

БАСЛАЎИШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТАРБИЯ

Oteniyazova P.E. Qaraqalpaq xalq awızeki kórkem dóretpelerinen biri bolǵan jumbaqlar tiykarında balalardıń til ósiriwin rawajlandırıw	282
Ochilov F.I. O'quvchilar tabiiy-ilmiy tafakkurini rivojlantirishning individual ta'lim amaliyoti	286
Jabborova O.M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining 5 ijtimoiy-emotsional ko'nikmalari mazmuni	291
Tashpulatova D.M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tarbiya asoslarini o'zlashtirishini tashhishtash metodikasi	299
Sayliyeva M. M. Tabiiy fanlar turkumini o'qitish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kristizim ko'nikmasini shakllantirish	304
Artikova N. Sh. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish	314
Egamonova G.A., Zikirova D. Sh. Boshlang'ich ta'limda darslarni steam, stem технологиялари asosida tashkillashtirishga innovatsion yondashuvlar	320
Kenjayeva F.Sh. Bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik va psixologik qobiliyatlarini shakllantirish ta'lim muammosi sifatida	325
Sulaymanova M.P. Boshlang'ich sinflarda "Tarbiya" fanining o'qitishda innovatsion metodlardan foydalanish metodikasi (xususiy maktablar misolida)	332
Narimbetova Z.A., Asqarova N.J. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni matematik savodxonligini oshirishda matematik diktantlardan foydalanish	337
Мамбеталиев Қ. А. Бошланғич синфда ўқувчининг ёзма нутқини ривожлантириш	341



BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING 5 IJTIMOIIY-EMOTIONAL KO‘NIKMALARI MAZMUNI

Jabborova O.M.

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Tayanch so‘zlar: boshlang‘ich sinf, o‘quvchi, SEL metodikasi, yondashuv, ko‘nikma, tahlil, talqin, bilim, ko‘nikma.

Ключевые слова: начальный класс, ученик, методика SEL, подход, умение, анализ, интерпретация, знания, умение.

Key words: elementary grade, textbook, SEL methodology, approach, skill, analysis, interpretation, knowledge, skill.

Резюме: Ushbu maqolada SEL metodikasi asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining 5 ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalari mazmuni to‘g‘risida fikr yuritilgan va muallifning individual metodikasi taqdim etilgan.

Резюме: В данной статье на основе методики сел рассмотрено содержание 5 социально-эмоциональных навыков младших школьников и представлена индивидуальная авторская методика.

Summary: In this article, based on the village methodology, the content of 5 socio-emotional skills of younger schoolchildren is considered and an individual author's methodology is presented.

Kirish. Mamlakatimizda 2030 yilga qadar sifatli ta‘limga erishish vazifasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy negizi sifatida qabul qilingan va ana shu vazifalar doirasida ta‘lim islohotlari amalga oshirilmoqda. Bunda “aholi talablariga va xalqaro ta‘lim dasturlari qoidalariga mos boshlang‘ich ta‘limni tashkil qilish” alohida belgilangan[1]. Mazkur vazifalar ijrosi jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ko‘nikmalarini bugungi kundagi xalqaro miqyosda e‘tirof etilgan talablar va qoidalar asosida shakllantirish ham muhim o‘rin tutadi. Shu jihatdan SEL – social and emotsional learning metodikalari asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining 5 ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarini shakllantirish dolzarb bo‘lib turibdi. Mazkur ko‘nikmalar YUNESKOning “Barcha uchun umr davomida ochiq ta‘lim dasturi” asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, u Yevropa mamlakatlari va AQSHda ta‘lim tizimiga joriy etilgan. Mazkur ko‘nikmalar ta‘lim oluvchilarni hozirgi texnologik va tezkor rivojlanish sharoitida



ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarini tarkib toptirish vositasida ularni globallashtirish sharoitida munosib shaxslar sifatida voyaga yetkazishni nazarda tutadi. Chunki kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi jarayonida shaxsning ijtimoiy va emotsional ko'nikmalari texnik yondashuvlar ostida qolib, uning jamiyat rivojidan begonalashuviga asos bo'lmoqda. Unga ko'ra, shaxs texnik vositalarining imkoniyatlaridan foydalangan holda me'yorsiz individual manfaatlarini ustuvor bilmoqda va aksincha, umuminsoniyat rivojida shaxsning ijtimoiy-emotsional imkoniyatlari birlamchi poydevor bo'lib xizmat qiladi. Shu jihatdan dunyoning rivojlangan davlatlarida shaxsning ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarini ustuvor darajada shakllantirish masalasi global va sifatli ta'limning tayanch sifatida qabul qilinmoqda.

Mazkur masala mamlakatimizda ham alohida pedagogik vazifa sifatida kun tartibiga qo'yildi. Shu ma'noda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 21 iyundagi PQ-238-son "Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutini tashkil etish to'g'risida"gi qarorida 2025-2026 o'quv yilidan boshlab umumiy o'rta ta'lim maktablarida ushbu SEL – social and emotsional learning metodikasi asosida o'quvchilarning 5 ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarini shakllantirish vazifasi belgilandi. Mazkur vazifasi ijrosi jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarini ana shu metodika asosida shakllantirish taqozo etiladi. Bu o'rinda quyidagi tushunchalarning pedagogik mazmunini ta'kidlab o'tish lozim:

ijtimoiy – bu shaxsning o'zi yashayotgan jamiyat talablari va ehtiyojlariga mos ravishda ko'nikmalar va fazilatlarini qabul qilish majmuidir[2]. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarini Yangi O'zbekiston jamiyati talablariga mos ijtimoiy ko'nikmalar va fazilatlar bilan qurollantirish taqozo etiladi.

emotsional – ma'naviy-ruhiy hodisa bo'lib, shaxsning muayyan voqelikka nisbatan o'z munosabatini his qilishidan kelib chiqadigan kechinmalari majmuidir[3]. Shu ma'noda boshlang'ich sinf o'quvchilarining muayyan ijtimoiy voqelikka nisbatan ularning hayajon va his-tuyg'ulari asosida yuzaga keladigan ko'nikmalarini tarkib toptirish muhim hisoblanadi.

E'tibor berilsa, ijtimoiy-emotsional tushunchasi ta'lim oluvchilarning o'z jamiyati talabalarini va ehtiyojlariga mos ravishda faoliyat ko'rsatishi hamda o'z davriga munosabatda bo'lishi harakatlari majmuini ifodalaydi. Bunda boshlang'ich sinf o'quvchilarining mazkur ko'nikmalarni tarkib toptirish jamiyat rivoji uchun g'oyat muhim masala hisoblanadi. Chunki pedagog olimlar e'tirof etganidek, 7-11 yoshli o'quvchilar ta'lim va tarbiya jarayonida shaxs sifatida voyaga yetishning eng muhim tushunchalari, ko'nikmalari va g'oyalarini dastlabki hamda muhim bosqichda qabul qiladi. Ular kelgusi faoliyatida aynan boshlang'ich ta'lim jarayonida olgan ko'nikmalari vositasida faoliyat yuritadi va



shu ma'noda kelgusi ta'lim bosqichi boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarini rivojlantirish xarakterida bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili. Mamlakatimizda boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim va ko'nikmalarini tarkib toptirish, unda yangicha yondashuvlarga asoslanish masalalari hamda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy ko'nikmalarini talab darajasida rivojlantirish muammolari bo'yicha pedagogik ilmiy-tadqiqotlar amalga oshirib kelinmoqda. Bu borada R.Djurayev, X. Ibragimov, Sh.Mardonov, O.Musurmonova va bir qator pedagog olimlarning tadqiqotlari e'lon qilingan bo'lib, ular asosida boshlang'ich ta'limni rivojlantirishning metodologiyasi ishlab chiqilgan. Ayni paytda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining yangi ijtimoiy-ko'nikmalarini tarkib toptirish, ularning emotsional kechinmalarini tartibga solish va bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini zamonaviy boshlang'ich ta'limga tayyorlash masalalari bo'yicha yangi tadqiqotlar majmui amalga oshirilishi dolzarb bo'lib turibdi. Shu ma'noda pedagogik lug'atlar, mutafakkirlarimizning pedagogik asarlari va xorijlik pedagog olimlarning yondashuvlari bugungi kunda yangicha nuqtai nazardan o'rganib borilayotganligini ta'kidlab o'tish lozim.

Asosiy qism. Boshlang'ich ta'limni rivojlantirish eng muhim strategik vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki boshlang'ich ta'lim aholi savodxonligini ta'minlashning asosiy tayanchi hisoblanadi. Shu sababli mamlakatimizda boshlang'ich sinf o'quvchilarining 5 ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarini bugungi kun talablari asosida tarkib toptirish va ularni shu ko'nikmalar asosida ta'limning keyingi bosqichlariga tayyorlash dolzarb bo'lib turibdi. Bu o'rinda e'tiboringizni boshlang'ich sinf o'quvchilarining 5 ijtimoiy-emotsional (SEL – social and emotsional learning) metodikasi bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirish yuzasidan ushbu ko'nikmalarning ma'no-mazmuniga e'tiboringizni tortamiz.

1. *O'z-o'zini anglash ko'nikmasi.* Ushbu ko'nikma 5 ijtimoiy-emotsional ko'nikmasining dastlabki tushunchasi bo'lib, unda shaxsning o'zagini qaror toptirish g'oyasi mujassam bo'lgan. O'z-o'zini anglash – bu insonning o'z-o'zi va o'z shaxsiy sifatlarini anglashdir[4]. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'z-o'zini anglash ko'nikmasi ularning o'zligini, ya'ni Men tushunchasini to'g'ri shakllantirish bilan ifodalanadi. Unga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchisining inson sifatidagi ichki kechinmalari, his-tuyg'ulari va uning ongida paydo bo'layotgan g'oyalar to'g'ri shakllantiriladi. Misol uchun, vatanparvarlik ko'nikmasi boshlang'ich sinf o'quvchisi ongida aynan uning Men tushunchasi bilan bog'liq holda yuzaga keladi. Chunki boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning Vatan to'g'risidagi fikrlari, yondashuvlari va xatti-xarakatlariga ko'p duch kelamiz. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'z-o'zini anglashdagi ko'nikmalari oila, Vatan, ota-ona, aka-opa va uka-singillarga nisbatan munosabatda bo'lish vositasida tarkib topib boradi. Bu milliy xususiyat



har bir xalqqa xos bo‘lib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari aynan boshlang‘ich ta‘lim jarayonida ana shu tayanchlar asosida o‘z-o‘zini anglash ko‘nikmasiga ega bo‘lib boradi.

O‘z-o‘zini anglashda shaxsdagi tabiiy va tug‘ma xususiyatlarni rivojlantirish va Men tuyg‘usi vositasida takomillashtirish muhim o‘rin tutadi. Shu sababli pedagogik olimlar ta‘lim oluvchilarning o‘z-o‘zini anglashida quyidagi uch masala muhim ahamiyatga ega ekanligini alohida ta‘kidlab ko‘rsatishadi:

- 1) o‘z xohish-istaklarini to‘g‘ri rivojlantirish;
- 2) ona tilini o‘zlashtirish;
- 3) ongini tarkib toptirish.

Shaxsning o‘z-o‘zini anglash ko‘nikmasi tabiiy va ta‘lim jarayonida tadrijiy tarkib topib borishini eslatib o‘tish lozim. Bunda asosiy e‘tibor shaxsning o‘zi mansub jamiyat ehtiyojlariga mos voyaga yetishiga qaratiladi. Bugungi kunda jamiyatimizda innovatsion rivojlanish jarayoni ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shu jihatdan bugungi jamiyatimiz shaxsda yangiliklarga intilish, kashfiyotlarni anglash va ixtirochilik asoslaridan xabardor bo‘lish yondashuvlarini tarkib toptirish muhim ahamiyatga egadir. Shu ma‘noda jamiyatimizda yangi shaxsni voyaga yetkazishda eng avvalo uning o‘z-o‘zini anglashi tayanch bo‘lib qabul qilinishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu sababli shaxsning o‘z-o‘zini anglash jarayoni bevosita jamiyatning ehtiyojlariga mos ravishda amalga oshirilishi kutilgan samarani beradi.

Mamlakatimizda shaxsni o‘z-o‘zini anglash jarayoni oila va maktabgacha ta‘lim bosqichida boshlanib, umumiy o‘rta ta‘lim bosqichida to‘liq shakllantiriladi va keyingi ta‘lim bosqichlarida u takomillashtirib boriladi. Shu ma‘noda boshlang‘ich ta‘lim bosqichida shaxsning o‘z-o‘zini anglash jarayoni oila hamda ta‘lim muassasalarida tarkib toptirilgan ko‘nikmalarni ilmiy-pedagogik asoslarga tayangan holda rivojlantirish ishlari amalga oshiriladi. Shu jihatdan shaxsning o‘z-o‘zini anglashida oila va maktab hamkorligini zamonaviy talablar asosida yo‘lga qo‘yish dolzarb bo‘lib turibdi. Bu masalada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 21 iyundagi PQ-232-son “Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarorida quyidagi vazifalarning belgilanganligini eslatib o‘tish lozim: 2024-2025 o‘quv yilidan boshlab:

- umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida “Farzand tarbiyasida ota-onaning mas‘uliyati” mavzusida tarbiya haftaliklarini o‘tkazib borish;
- ota-onalarning farzand tarbiyasi borasidagi bilimni oshirishga qaratilgan “Namunali ota-onalar maktabi” loyihasini amalga oshirish.

Mazkur vazifalarning ijrosi jarayonida oila va maktabning hamkorligi vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘z-o‘zini anglash ko‘nikmasini



kutilgan darajada tarkib toptirish imkoniyatlariga ega bo‘linadi. Chunki tarbiya haftaliklari davomida aynan o‘quvchilarning o‘zlashtirayotgan ko‘nikmalarini baholash va ota-onalarning yutuqlarini namuna sifatida belgilab borish amalga oshiriladi. Buning natijasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘z-o‘zini anglash ko‘nikmasini shakllantirishning amaliy imkoniyatlari va vositalariga ega bo‘linadi.

Milliy pedagogikamiz va jahon xalqlari pedagogikasi tajribalarida shaxsning o‘z-o‘zini anglashi asosiy ta‘lim va tarbiyaviy masalalardan biri hisoblanadi. Unga ko‘ra, umumiy va ilmiy yondashuv negizi Odam atoning o‘zini anglab, mustaqil hayot kechirishi bilan bog‘liq holda talqin qilinadi. Shu jihatdan shaxsning o‘z-o‘zini anglash ko‘nikmasi hozirgi zamon “Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi”ning muhim vazifalaridan biri sifatida qabul qilinishini eslatib o‘tish joiz. Ushbu o‘quv fani vositasida oliy pedagogik ta‘lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini shaxsning o‘z-o‘zini anglash ko‘nikmasini tashkil toptirish metodikasi bilan qurollantirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunday yondashuv vositasida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini SEL metodikasi bo‘yicha 5 ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalar asoslari bilan tanishtirish va mazkur o‘quv darsligini boyitishga erishiladi. Buning natijasida shaxsda o‘z-o‘zini anglash ko‘nikmasini tarkib toptirishning o‘ziga xos metodikasiga ega bo‘linadi.

2. O‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmasi. Mazkur 5 ijtimoiy-emotsional ko‘nikma pedagogik jarayonda muhim o‘rin tutadi. Avvalo, “o‘z-o‘zini boshqarish – ma‘naviyatning keng miqyosli vazifalaridan biri sifatida har bir shaxs va butun jamiyatni to‘g‘ri yo‘lga solish” ma‘nosini anglatadi. Shu jihatdan shaxsning o‘z-o‘zini boshqarishi axloqiy va siyosiy ma‘nolarda qo‘llaniladi. Pedagogik nuqtai nazardan o‘z-o‘zini boshqarish axloqiy ma‘noda qo‘llanilib, unga ko‘ra, shaxs o‘z hayoti va faoliyatida individual tuyg‘ularini jilovlay olishi, salbiy oqibatlariga olib keladigan xatti-harakatlardan tiyilishi va o‘zligida insonparvar me‘yorlarni tarkib toptirishi kerak bo‘ladi. Demak, bunda shaxsning o‘z-o‘zini boshqarishi illatlaridan tiyilish va fazilatlariga intilish jarayonida kechadi.

Mamlakatimizda shaxsning o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmasi dastlabki bosqichda oila va maktabgacha ta‘lim muassasalarida tarkib toptiriladi. Bu jarayonda bolada o‘zligini anglash vositasida individual tuyg‘ularini o‘zgalarga tuyg‘ulariga moslashtirish ishi amalga oshiriladi. Buning natijasida bola shaxsida o‘z-o‘zini tiyish va o‘zgalarga bilan munosabatga kirishish his-tuyg‘ulari paydo bo‘ladi. Boshlang‘ich ta‘lim bosqichida shaxsning o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmasi pedagogik vositalar asosida amalga oshiriladi. Bunda bilim olish jarayonida, tarbiyaviy qonuniyatlarga rioya qilishda va jamoatchilik ishlarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining individual va umumiy yondashuv ko‘nikmalarini tarkib toptirishga alohida e‘tibor beriladi. Shuni eslatib o‘tish



joizki, bugungi kunda mamlakatimizda boshlang'ich ta'lim islohotlari jarayonida o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish ko'nikmasi ijtimoiy tuzilmalar vositasida amalga oshirilayotganligi muhim amaliy samaralarni bermoqda. Unga ko'ra, o'zlashtirishda kamchiligi bo'lgan yoki axloqiy jihatdan murakkab bosqichda bo'lgan o'quvchilar bilan sinf rahbari, ota-onalar, maktab jamoasi va mahalla vakillarining hamkorlikdagi ishlari yo'lga qo'yilgan. Natijada boshlang'ich sinf o'quvchilarida har qanday murakkab holat va vaziyatlarda o'z-o'zini boshqarish ko'nikmasi tadrjijiy tarkib topib bormoqda.

Pedagogik tajribadan ma'lumki, shaxsda o'z-o'zini boshqarish ko'nikmasini tarkib toptirish bilan u ijtimoiy faoliyat va hayotga tayyorlanadi.

O'z-o'zini boshqarish ko'nikmasi pedagogik olimlarning fikricha, "jamoaning ijtimoiy ahamiyatli maqsadiga erishish uchun yechimlarni tanlash va qabul qilishda jamoa a'zolari mustaqilligining takomillashuvini nazarda tutuvchi hayotiy faoliyatning tashkiliy ko'rinishidir". Shu ma'noda shaxsning o'z-o'zini boshqarish ko'nikmasi quyidagilarga asoslanishini eslatib o'tish lozim:

- 1) jamoa maqsadiga moslashish;
- 2) jamoa bilan hamkorlikda harakat qilish;
- 3) jamoa faoliyatida ishtirok etish.

E'tibor berilsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining jamoa tuyg'usini rivojlantirish bilan ularda o'z-o'zini boshqarish ko'nikmasini tarkib toptirish mumkin. Bunda asosiy e'tibor har bir o'quvchining o'z-o'zini boshqarish ko'nikmasiga ega bo'lishi bilan sinf miqyosida o'z-o'zini boshqarish malakasini egallashga qaratiladi.

3. Ijtimoiy xabardorlik ko'nikmasi. Ijtimoiy-emotsional ko'nikmalar tarkibida ijtimoiy xabardorlik muhim o'rin tutadi. "Ijtimoiy xabardorlik – shaxsning ijtimoiylashuvi tarkibiga xos bo'lgan tushunchalardan biri bo'lib, unga ko'ra, shaxs o'zi yashayotgan jamiyatning ehtiyojlari, talablari va qoidalaridan xabardor bo'lishi kerak". Shaxsning ijtimoiy xabardorlik masalasi Jahon pedagog – faylasuflari tomonidan keng talqin qilingan va unda asosiy e'tibor shaxsning o'z jamiyati ehtiyojlariga mos bo'lishi masalasiga qaratilgan. Bu borada psixolog olim Gard Tardning ijtimoiy kuzatishlari, psixoanaliz pedagog Zigman Freydning ong osti kashfiyotlari va Tolgat Parsonsning tarkibiy – funksional tahlillari muhim o'rin tutadi. Ushbu tadqiqotlarda har bir shaxsning o'z jamiyati asoslari va ideallaridan xabardor bo'lishi pedagogik zaruriyat sifatida talqin qilingan. Mazkur pedagog olimlar ta'lim oluvchilarda ijtimoiy xabardorlik ko'nikmasini tarkib toptirishda muayyan yondashuvlarga tayanishni tavsiya etishadi. Shu ma'noda ijtimoiy kuzatish, shaxsning ongidagi yangiliklarni kashf qilish va shaxsning vazifalarini anglatish yondashuvlari muhim o'rin tutadi. Bunda ijtimoliy kuzatish ta'lim oluvchini o'zi mavjud jamiyatning ehtiyojlariga moslashuvini, ongidagi



yangiliklarni ro'yobga chiqarish esa shaxsni ishtimoiy yo'naltirishni va uning ijtimoiy vazifalari belgilash esa shaxsni faoliyatga yo'naltirish ma'nolarini anglatadi.

Aslida har bir shaxs ta'lim jarayoniga qadar muayyan darajada ijtimoiy xabardorlik ko'nikmasini egallaydi. Biroq bunda ta'lim bosqichi asosiy vazifani bajarishini eslatib o'tish lozim. Shu jihatdan pedagogik tajribalarga ko'ra, shaxsning ijtimoiy xabardorlik ko'nikmasining birinchi bosqichi 2-6 yoshlar oralig'ida kechadi. Shu sababli mazkur vazifa dastlab mamlakatimizda oila va maktabgacha ta'lim muassasalarida amalga oshirilishini eslatib o'tish joiz. Boshlang'ich ta'lim bosqichida esa bolaning ijtimoiy xabardorlik ko'nikmasi to'liq shakllantiriladi. Unga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchisi jamiyatimizning milliy qadriyatlari va eng asosiy umuminsoniy qadriyatlardan xabardor bo'lishi kerak. Bunda bolaning individual hislatlari umumiy fazilatlar bilan uyg'unlashtiriladi. Natijada boshlang'ich sinf o'quvchisida oila, mahalla va ijtimoiy tuzilmalar to'g'risida tushunchalar paydo bo'ladi. Bugungi kunda mamlakatimizda Bolalar ijodiyoti markazlari vositasida o'quvchilarning ijtimoiy xabardorlik ko'nikmasini keng ko'lamli shakllantirish ishlari amalga oshirilmoqda va shu sababli 2025-2026 o'quv yilidan boshlab har bir tuman va shaharlarda (viloyatlar miqyosidagi shaharlarda) markazlashgan Bolalar ijodiyoti markazlari faoliyati yo'lga qo'yilib, ular eng chekka hududlardagi umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning ijtimoiylashuvi va ijtimoiy xabardorlik ko'nikmasini tarkib toptirish bo'yicha manzilli tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirmoqda. Bu tajriba Markaziy Osiyo davlatlari ichida yagona bo'lib, unda mamlakatimizda 2030 yilga qadar sifatli ta'limga erishish vazifalarining ijrosini ta'minlash ishlariga alohida e'tibor berilmoqda. Shu jihatdan kelgusida shaxsning ijtimoiy xabardorlik ko'nikmasini tarkib toptirish tizimli ravishda amalga oshirilishini eslatib o'tish joiz.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy xabardorlik ko'nikmasini tarkib toptirish bir necha zaruriyatlari bilan belgilanadi. Bunday zaruriyatlarning asosiylari quyidagilardan iborat:

- 1) o'quvchilarni ijtimoiylashtirish;
- 2) o'quvchilarni ta'lim olishga yo'naltirish;
- 3) o'quvchilarni tarbiyaga yo'naltirish.

Diqqat qilinsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy xabardorlik ko'nikmasini tarkib toptirish uchun ularni ijtimoiylashtirish, ta'lim va tarbiyaga yo'naltirish tayanch vazifalarni bajaradi.

Xulosa. E'tibor berilsa, SEL metodikasi bo'yicha 5 ijtimoiy-emotsional ko'nikmalar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, u bevosita ta'lim jarayoni bilan bog'liqdir. Shu jihatdan bu o'rinda quyidagi ikki tushuncha ma'nosiga e'tibor berish kerak:



birinchisi – ijtimoiy ta’lim, bunda mamlakatimiz umumiy o’rta ta’lim maktablarida 2025-2026 o’quv yilidan boshlab barcha o’quv fanlari vositasida o’quvchilarga ijtimoiy ta’lim berish amalga oshiriladi. Unda o’quvchilarga ijtimoiy tushunchalar, bilimlar va ko’nikmalar berish o’quv fanlarining asosiy vazifalari sifatida belgilanayotganligini eslatib o’tish joiz;

ikkinchisi – emotsional ko’nikma, bunda o’quvchilarning hissiy-axloqiy ko’nikmalarini talab darajasida tarkib toptirish va unda jahon mamlakatlari ta’lim tizimida qabul qilingan o’z-o’zini anglash, o’z-o’zini boshqarish, tengdoshlariga munosabat va mas’uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyalarini tarkib toptirish birlamchi hisoblanadi.

Boshlang’ich sinf o’quvchilarining SEL metodikasi bo’yicha 5 ijtimoiy-emotsional ko’nikmalarini tarkib toptirish butunlay yangicha yondashuvlarga asoslanishni taqozo etadi. Shu sababli mazkur masalada Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti bilan mamlakatimiz oliy pedagogik ta’lim muassasalarining ilmiy-metodik tadqiqotlari faoliyatini yo’lga qo’yish maqsadga muvofiq bo’ladi. Chunki o’quvchilarning 5 ijtimoiy-emotsional ko’nikmalarini shakllantirish Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan taklif etilgan, bu masalaning ilmiy-metodik yechimi esa bevosita Tarbiya pedagogikasi milliy instituti va mamlakatimiz oliy pedagogik ta’lim muassasari tomonidan amalga oshirilishi taqozo etiladi. Shu sababli O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 21 iyundagi PQ-232-son “Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutini tashkil etish to’g’risida”gi Qarorida ta’lim muassasalarida ijtimoiy-emotsional ta’lim metodikalarini joriy etish alohida ta’kidlangan. Bu borada bunday hamkorlikning ilmiy-metodik asoslari ishlab chiqilishi taqozo etiladi.

Shu tariqa 2025-2026 o’quv yilidan boshlab mamlakatimiz umumiy o’rta ta’lim muassasalarida, jumladan, boshlang’ich ta’lim bosqichida ijtimoiy ta’lim va tarbiya vositasida mazkur 5 ijtimoiy – emotsional ko’nikmalarni tarkib toptirish asosiy vazifalar sifatida belgilanmoqda. Buning natijasida mamlakatimizda ta’lim sifatiga erishishning eng muhim omillaridan biriga ega bo’linadi.

ADABIYOTLAR:

1. “O’zbekiston-2030” strategiyasi. // [www. lex.uz](http://www.lex.uz)
2. Ma’naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug’ati. Mualliflar jamoasi. – T.: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2010.
3. Pedagogik atamalar lug’ati. R.Djurayev va boshq. – T. “Fan”. 2008.
4. Filosofskiy slovar. Kollektiv avtorov. – M.: “Politizdat”. 1980.
5. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. – T.: “Yozuvchi”. 1996
6. Ushinskiy K.D. Tanlangan pedagogik asarlar. – T.: “Uzdavnashr”. 1959.

ISSN 2181-7138

Т. Н. Қары Ниязий атындағы Өзбекстан педагогикалық
илим-изертлеу институтының Ж. Орынбаев атындағы Қарақалпақстан филиалы

**«МУҒАЛЛИМ ХӘМ ҮЗЛИКСИЗ
БИЛИМЛЕНДИРИҰ»**

№ 5

Нөкис — 2024

Басып шығыуға жууапкер:

А. Тилегенов, С. Нуржанов

Баспаға таярлаған:

А. Тилегенов

Компьютерде таярлаған:

П. Реймбаев, З. Ниязымбетова

Мәнзил: Нөкис қаласы, Ерназар Алакөз көшеси №54

Тел.: +998 61 224-23-00, +998 61 224-01-34

e-mail: uzniipnkkf@umail.uz,

mugallim-pednauk@umail.uz

www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz

www.KRTEACH.UZ

*Журналға келген мақалаларға жууап қайтарылмайды, журналда жәрияланған мақалалардан алынған үзиндилер «Муғаллим хәм үзликсиз билимлендириу» журналынан алынды, деп көрсетилиуи шәрт. Журналға 5-6 бет көлеминдеги материаллар еки интервалда **TIMES NEW ROMAN** шрифтинде электрон версиясы менен бирге қабыл етиледи. Мақалада келтирилген мағлыуатларға автор жууапкер.*

Оригинал-макеттен басыуға рухсат етилди 09.09.2024. Форматы 70x100¹/₈

«Таймс» гарнитурасында офсет усылында басылды.

Шәртли б.т. 31. Нашр. т. Нусқасы _____ Буйыртпа №